



Asosiy mahsulotlar

Galvanizatsiyalangan
po'lat mahsulotlari

Biz haqimizda

2019-yildan buyon “TURON STAL PROFIL” MChJ qalinligi 0,3 mm dan 1,5 mm gacha bo'lgan galvanizatsiyalangan po'lat rulonlar, gipsokarton uchun galvanizatsiyalangan profillar, jumladan stoyka (devor) profillari, ship profillari, yo'naltiruvchi profillar, shtrips hamda turli qalinlik va o'lchamdagi po'lat listlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Barcha mahsulotlar mustahkam va sifatli xomashyolardan tayyorlanadi.

Bugungi kunda kompaniya O'zbekiston bozorining qariyb 25–30 foiz ulushiga ega. Bizning asosiy maqsadimiz — mijozlarni yuqori sifatli mahsulotlar bilan o'z vaqtida va minimal xarajatlar asosida ta'minlashdir. “TURON STAL PROFIL” MChJ qurilish sohasi uchun mahsulotlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish va yetkazib berish bo'yicha innovatsion hamda samarali yechimlarni taklif etadi.

Kompaniya assortimentida 10 dan ortiq turdagi sanoat mahsulotlari mavjud. Korxona faoliyatining ko'p yo'nalishliligi metallarga ishlov berishning turli jarayonlarini qamrab oladi va mijozlarning keng ko'lamdagi ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

“TURON STAL PROFIL” MChJ tarkibida sohada ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar faoliyat yuritadi. Kompaniyaning asosiy ishlab chiqarish quvvatlari Toshkent shahrida joylashgan. Hozirgi kunda kompaniya o'z mahsulotlarini 3 ta davlatga eksport qilmoqda. Bizning maqsadimiz — iste'molchilarni qurilish va sanoat uchun mo'ljallangan zamonaviy, texnologik va yuqori sifatli po'lat mahsulotlar bilan ta'minlashdir.

“TURON STAL PROFIL” MChJni tanlar ekansiz, siz sifat, ishonchlilik va professionallikni tanlaysiz.

BIZNING ASOSIY AFZALLIKLARIMIZ

Ishlab chiqarish

Texnologiyalarni doimiy ravishda takomillashtirish, uskunalarni modernizatsiya qilish hamda xodimlarning kasbiy malakasini oshirish “TURON STAL PROFIL” MChJga yuqori sifat va ishonchlilik talablariga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish imkonini beradi. Biz ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va yetkazib berish barqarorligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish jarayonlarini muntazam ravishda optimallashtirib boramiz.

Har bir mijozga individual yondashuv

Biz hamkorlikning individual shartlarini taklif etamiz, jumladan narx siyosatini kelishish, buyurtmachining texnik topshirig'i asosida nostandart mahsulotlar ishlab chiqarish, yetkazib berishni tashkil etishda shaxsiy yondashuv hamda tegishli yuridik va buxgalteriya masalalarini tezkor hal etishni ta'minlaymiz.

Ishonchlilik va samaradorlik

Zamonaviy ishlab chiqarish liniyalari, xodimlarning yuqori malakasi hamda samarali boshqaruv tizimi bizga mahsulotlarni uzluksiz yetkazib berish va uzoq muddatli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish imkonini beradi. Aynan shu sababli mijozlar “TURON STAL PROFIL” MChJni metall prokati va quvur mahsulotlarining ishonchli yetkazib beruvchisi sifatida tanlaydilar.

BIZNING MAHSULOTLARIMIZ?

Galvanizatsiyalangan po'lat rulonlar

Korroziyadan ishonchli himoyani va uzoq xizmat muddatini ta'minlovchi yuqori sifatli galvanizatsiyalangan metall prokati. Qurilish, metall konstruksiyalar ishlab chiqarish hamda turli sanoat loyihalarida keng qo'llaniladi.

Gipsokarton uchun galvanizatsiyalangan profillar


Ichki pardoqlash ishlarida gipsokarton konstruksiyalarini montaj qilish uchun mo'ljallangan ishonchli profillar. Ular mustahkamlik, barqarorlik va uzoq xizmat muddatini ta'minlaydi.



Galvanizatsiyalangan po'lat rulonlar va lentalar keng qo'llaniladigan metall mahsulotlar hisoblanadi. Galvanizatsiya qoplamasi ularning korroziyaga chidamliligini oshiradi.

Оцинкованные стальные рулоны и лента — широко используемые стальные изделия. Оцинковка повышает их коррозионную стойкость.

Qalinligi / Толщина:	0.3-2 mm
Shtrips / Штрипс:	30-519 m
Rux miqdori / Цинк:	40-100 mg/m ²



Galvanizatsiyalangan metall karkas profillari gipsokarton konstruksiyalarini — devorlar, shiftlar, to'siqlar va dekorativ elementlarni montaj qilish uchun qo'llaniladi. Ular korroziyadan himoya qiluvchi rux qatlami bilan qoplangan bo'lib, mahsulotning xizmat muddatini uzaytiradi.

Металлические каркасные профили, которые используются для монтажа конструкций из гипсокартона: стен, потолков, перегородок и декоративных элементов. Они покрыты слоем цинка (оцинковка), который защищает металл от коррозии.

Qalinligi / Толщина:	0.3-0.6 mm
Uzunligi / Длина:	3 000-5 000 mm



BIZNING HAMKORLARIMIZ



Biz bilan bog'laning / СВЯЖИТЕСЬ С НАМИ

Veb-sayt / Веб-сайт

www.turonstalprofil.uz

Telefon / Телефон

+998 55 055 36 36

Telefon / Телефон

+998 99 720 17 17

Manzil / Адрес

O'zbekiston, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chorbog' ko'chasi, 42-uy
Узбекистан, город Ташкент, Чиланзарский район, улица Чорбог, 42